YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH.....	734
Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR TA'SIRINI BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	738
Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi	
MOLIYA TIZIMI BARQARORLIGI VA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING AHAMIYATI.....	743
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: AN ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN CARBON EMISSIONS AND ECONOMIC DEVELOPMENT.....	748
Shakhriddinova Sitara Tolibjon kizi	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ESG TAMOIYILLARINING ROLI	760
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA YETKAZIB BERISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	769
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
YASHIL IQTISODIYOT KONTEKSTIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	776
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SPORT TASHKILOTLARINING YANGI BIZNES MODELLARINI ISHLAB CHIQISH	782
G'ulomov Musirmon	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTISIYALARNI JALB ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	786
Sharipova Shahnoza Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTISIYA MUHITIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA INVESTISIYALARNING IQTISODIYOTGA JALB ETILISH HOLATI TAHLILI	795
Karimova Qunduz Atanazarovna	
O'ZBEKISTON TURISTIK XIZMATLAR BOZORIDA BANDLIK TRANSFORMATSIYASINI VA UNI TARTIBGA SOLISH HOLATINI TAHLIL QILISH	804
To'xtayeva Xurshida Farxodovna	
INVESTITSIYA LOYIHALARIGA TA'SIR QILUVCHI INVESTITSIYA RISKLARINI BAHOLASH	811
Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	
ТИПЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ФИНАНСОВЫХ РАЗВЕДОК: ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ, ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	817
Эсанов Шохрух Отабекович	
FACE RECOGNITION PROGRAM IN PYTHON	823
Khurramova Maftunakhon Zhurabekovna, Khurramov Azizjon Bakhodir ugli	
FORMATION OF ACCOUNTING POLICY FOR INTANGIBLE ASSETS	827
Farxod T. Abduvaxidov, Ramazon A. Abdurakhmanov	
O'ZBEKISTON EKSPORT TARKIBINI YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATLI MAHSULOTLARGA O'TKAZISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	834
Raximov Eshmurod Normuradovich	
EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	850
Azimova Moxinur Nozimovna	
ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ В МАЛЫХ ГОСТИНИЦАХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ	856
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: tajiddinov84@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0879-0975

Annotatsiya: Davlat investitsiyalari va xarajatlarning ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish, ta’limga investitsiyalarni rag‘batlantirish, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish, resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash, banklar tomonidan berilayotgan kreditlar monitoringi, O‘zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining tamoyillari, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, investitsiya, moliya tashkilotlari, raqobat, resurslardan unumli foydalanish, strategiya, ekologiya, qimmatli qog‘ozlar, kredit, aktiv.

Abstract: The article highlights issues related to introducing “green” criteria based on advanced international standards into the priority directions of state investments and expenditures, stimulating investment in education, creating “green” jobs, and improving public welfare to achieve existing macroeconomic goals. It also discusses ensuring the investment attractiveness of measures for the efficient use of resources, monitoring loans provided by banks, the principles of a long-term transition strategy to a “green” economy in Uzbekistan, accelerating reforms in the banking system, expanding the size of the banking services market, and developing competition in the sector.

Key words: green economy, investment, financial institutions, competition, efficient use of resources, strategy, ecology, securities, credit, assets.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с внедрением «зелёных» критериев, основанных на передовых международных стандартах, в приоритетные направления государственных инвестиций и расходов, стимулированием инвестиций в образование, созданием «зелёных» рабочих мест и повышением благосостояния населения для достижения существующих макроэкономических целей. Также анализируются обеспечение инвестиционной привлекательности мер по рациональному использованию ресурсов, мониторинг кредитов, выдаваемых банками, принципы долгосрочной стратегии перехода к «зелёной» экономике в Узбекистане, ускорение реформ в банковской системе, расширение рынка банковских услуг и развитие конкуренции в данной сфере.

Ключевые слова: зелёная экономика, инвестиции, финансовые организации, конкуренция, рациональное использование ресурсов, стратегия, экология, ценные бумаги, кредит, активы.

KIRISH

Mamlakatimizni 2017–2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘tishni ta’minlash omillaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, jumladan Parij bitimi majburiyatlarini bajarish maqsadida, 2019–04-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur strategiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash, issiqxona gazlari chiqindilari hajmini kamaytirish, iqlim va ekologiya barqarorligini mustahkamlash hamda izchil iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iboratdir.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun bir qator asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur. Birinchidan, texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya

samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish belgilangan. Ikkinchidan, davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni joriy etish zarur. Uchinchidan, davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. To‘rtinchidan, ta’limga investitsiyalarni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyot mehnat bozorida zarur bo‘lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Bundan tashqari, Orolbo‘yi ekologik inqirozining salbiy ta‘sirini yumshatish choralari ishlab chiqilishi hamda “yashil” iqtisodiyot sohasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ham strategiyaning ajralmas yo‘nalishlari sifatida e‘tirof etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy fan sifatida XX asr oxirlarida shakllangan bo‘lib, u iqtisodiyotning tabiiy muhitga bog‘liqligini, uning tarkibiy qismi ekanligini hamda tabiiy muhit doirasida amal qilish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslarni tejashga yo‘naltirilgan iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsion iqtisodiyot kabi iqtisodiy fanlardagi ilmiy g‘oyalarni qamrab oladi.

“Yashil iqtisodiyot” fan sifatida o‘z shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega. Tabiiy resurslarning cheklanganligi va qayta ishlab chiqarilmasligi bilan bog‘liq muammolar insoniyat faoliyatining barcha yo‘nalishlariga, jumladan iqtisodiy faoliyatiga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish XX asrning 60–70-yillarida ommalasha boshladi. Bu davrda iqtisodiy adabiyotlarda an‘anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan “atrof-muhit iqtisodiyoti” deb nomlangan yangi yo‘nalish shakllandi. Mazkur yo‘nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta‘siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar eksternal, ya‘ni tashqi samaralar sifatida talqin etila boshlandi. Shunga muvofiq, ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va ularni xalqaro darajada umumlashtirish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga iqtisodiy yondashuvni Ye. R. Lindal va J. R. Xiksler asoslab berganlar. Ularning Xiks–Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq, daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, ekologik jihatdan tejamkor texnologiyalarni (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) qo‘llash, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish va chiqindilarni boshqarish jarayoni alohida o‘rin tutadi.

Mazkur masalani hal etishda bosh muammo qaysi kapital – jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali – saqlanib qolishi kerakligi, turli kapital turlarining o‘zaro o‘rin almashish darajasi hamda ekologik resurslar qiymatini baholash usullariga borib taqaladi. Natijada iqtisodiy barqarorlikning ikki asosiy ko‘rinishi shakllandi:

1. Kuchsiz barqarorlik – vaqt bo‘yicha kamaymaydigan tabiiy va jamg‘arilgan kapitalga asoslangan iqtisodiy barqarorlik.
2. Kuchli barqarorlik – tabiiy kapitalning kamaymasligiga asoslangan iqtisodiy barqarorlik bo‘lib, bunda qayta tiklanmaydigan resurslarni sotishdan tushgan daromadning bir qismi tiklanadigan tabiiy kapital qiymatini oshirishga yo‘naltirilishi lozim. [4]

TAHLIL VA NATIJALAR

50-maqсад: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish^[1]. Ijro uchun asosiy mas‘ul — Markaziy bank

№	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Hamijrochilar
	Barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashda ichki jamg‘armalar va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish	1. Aholining moliyaviy savodxonligini va bank xizmatlari bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida moliyaviy ommaboplikni oshirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. Aholining banklardagi depozitlari hajmini 11 mlrd dollarga va banklardagi jami muddatli depozitlarni 10 mlrd dollarga yetishini ta‘minlash. 3. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga jami 300 trln so‘mlik kredit resurslari yo‘naltirilishini, shu jumladan kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga 120	2025-yil davomida	Iqtisodiyot va moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar

50-maqсад: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish^[1]

№	2030-yilgacha maqsadli ko'rsatkich	O'l chov birligi	2025-yil	I chorak	II cho rak	III cho rak	IV chorak	M'asullar
21	Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 30 milliard dollarga yetkazish.	Milliard	23	-	-	-	23	Markaziy bank,
22	Bank omonat lari hajmini 4 barobarga oshirish	foiz	25	6	12	19	25	Iqtisodiyot va moliya vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2025–01–fevral holatiga mamlakat bank tizimidagi raqobat darajasini o'rganishdi [3].

Ma'lumot uchun: bozor raqobati Herfindal–Hirshman indeksi (HHI) asosida uch guruhga bo'linadi:

- past raqobat – HHI 2500–10000 oralig'ida;
- o'rtacha raqobat – HHI 1500–2500 oralig'ida;
- yuqori raqobat – HHI 1500 dan past.

2025–01–fevral holatiga aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72 birlikka yaxshilanib, 800 birlikni tashkil etdi. Shu davrda tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 17,7 foizga (ya'ni 115,6 trln so'mga) oshib, 768 trln so'mga yetdi.

2024–01–fevral holatida xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklarning jami aktivlardagi ulushi 32,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025–01–fevral holatiga bu ko'rsatkich 34,5 foizga yetdi. Bu davrda “Anorbank” ulushi 0,64 foiz bandga (1,36 foizga), “TBC bank” ulushi 0,60 foiz bandga (1,33 foizga) va “Hamkorbank” ulushi 0,41 foiz bandga (3,71 foizga) oshdi. Aksincha, davlat ulushi mavjud yirik banklardan “Asakabank”ning jami aktivlardagi ulushi 1,5 foiz bandga, “Ipotekabank”niki esa 1,3 foiz bandga kamaydi.

2025–01–fevral holatiga kreditlar bo'yicha HHI indeksi 918 birlikni tashkil qilib, o'tgan yil mos davridagiga (975) nisbatan 57 birlikka yaxshilandi. Shu davrda xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmidagi ulush 30 foizdan 31 foizga oshdi.

Iqtisodiyotga tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari hajmi 2025–01–yanvar holatiga 533,1 trln so'mni (YalMga nisbatan 36,6 foiz) tashkil etgan bo'lsa, 2025–01–fevral holatiga 866 mlrd so'mga oshib, 534 trln so'mga yetdi. Jami kredit qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14 foizga ko'paydi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 20 foizga, yuridik shaxslarniki esa 11 foizga ortdi. Ayniqsa, jismoniy shaxslarga berilgan mikroqarzlarning hajmi 75 foizga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2024–01–yanvardan boshlab mikroqarzlarning uchun maksimal qiymat 50 mln so'mdan 100 mln so'mga oshirildi.

Milliy valyutadagi jami kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2024–01–yanvar oyida 24,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024–12–dekabrda kelib 23,4 foizga tushdi. Shu bilan birga, milliy valyutadagi aholi kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 2024–09–sentabrda 23,8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024–12–dekabrda 24,9 foizgacha oshdi. Bu holat milliy valyutadagi kreditlarga bo'lgan talabning ortishi va inflyatsion kutilmalarning yuqoriligidan dalolat beradi.

2025–01–fevral holatiga depozitlar bo'yicha HHI indeksi 636 birlikni tashkil etib, o'tgan yil mos davridagi 668 birlikka nisbatan 32 birlikka yaxshilandi. 2024–01–fevral holatida jami depozitlar hajmi 242,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025–01–fevralda bu ko'rsatkich 310,2 trln so'mga yetib, 28,1 foiz o'sishga erishildi.

Xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklarning jami depozitlardagi ulushi 2025–01–yanvar holatiga 1 foiz bandga oshib, 50 foizga yetdi. Biroq, 2025–01–fevralda “Ipotekabank” va “Tengebank” ulushlari mos ravishda 0,67 foiz bandga va 0,37 foiz bandga kamaygani sababli, davlat ishtirokidagi banklarning ulushi yana 1 foiz bandga oshdi.

Chet el valyutasidagi bank depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 2024-yil boshida 4,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, yil yakunida 5,3 foizga yetdi. Shu davrda milliy valyutada jalb qilingan depozitlar hajmi 36 foizga, xorijiy valyutada jalb qilingan depozitlar hajmi esa 7,4 foizga oshdi.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda aktivlar, kreditlar va depozitlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksining dinamikasi O'zbekiston bank tizimida raqobat darajasi oshib borayotganini ko'rsatmoqda. Davlat ulushini kamaytirish, xorijiy investorlarni jalb qilish va bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar raqobat sharoitlarini yaxshilashga hamda bank tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik; resurslardan oqilona

foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish; iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun “yashil” vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi; milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish va ko'rsatkichlarni yaxshilash, “yashil” ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish; resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash [4].

“O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash” va “Yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

- 2025–01–dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasida “yashil moliyalashtirish” tizimini shakllantirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqilsin;

- 2025-yildan boshlab quyidagi manbalar hisobidan yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlashga imtiyozli kredit va grant mablag'larini jalb etish choralari ko'rihsin:

- Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan — bosqichma-bosqich 200 million yevrogacha;

- Jahon bankidan — energetika sektorida metan emissiyasini kamaytirish uchun 10 million AQSh dollari;

- Global yashil o'sish instituti orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko'magi doirasida — O‘zbekiston–Koreya o'rtasida “yashil hamkorlik”ni kuchaytirish uchun 6,5 million AQSh dollari;

- Jahon bankining “iCRAFT” loyihasi doirasida — 500 ming tonna qisqartirilgan issiqxona gazlarini sotish hisobiga 7,5 million AQSh dollari;

- Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan — sanoatni yashillashtirish va azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning atmosferaga chiqarayotgan zararli gazlarini qisqartirish uchun 20 million yevro.

- 2025–09–sentabrga qadar “yashil iqtisodiyot” loyihalarini amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan milliy “yashil iqtisodiyot” loyihalarini baholash tartibi tatbiq etilsin;

- 2025–11–noyabrga qadar qiymati 10 million AQSh dollaridan yuqori bo'lgan davlat-xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni “Source” xalqaro platformasiga kiritish orqali loyihalarning “yashil komponentlari” va barqaror rivojlanish maqsadlariga mosligini baholash amaliyoti yo'lga qo'yilsin [2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan “yashil iqtisodiyot” siyosatini amalga oshirishda barcha sohalarda zamon talablariga mos bo'lgan xalqaro standartlar joriy qilinmoqda. Bunga misol sifatida bank tizimida olib borilayotgan islohotlarni keltirish mumkin.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash” va “Yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ustuvor yondashuvlar resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni ko'zda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foizga yetkazish, uning hajmini 200 milliard AQSh dollariga oshirish, inflyatsiyani 5 foiz darajasida, budget taqchilligini esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz miqdorida saqlash, kambag'allikni qisqartirish va aholining farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo'ladi [2].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024–21–fevraldagi PF–37-son Farmoniga 1-ILOVA. 2024–21–fevral.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025–30–yanvardagi PF–16-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI). O‘zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasi. 2025–01–fevral holatiga.
4. Asqarova M.T., Jamolov J.J., Xadjayev X.S. *Yashil iqtisodiyot*. Darslik. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – Toshkent: 2022. – B. 7–12; 265–266; 267.
5. Abdullaeva Sh.Z. *Bank ishi*. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TMI, 2003. – 305 b.
6. Abdullaeva Sh.Z. *Pul, kredit va banklar*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
7. Alimov I.I. *Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari*. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU, 2007.
8. Sultonov Sherali Nuraliyevich, Soatova Nodira Bobokhanovna. *Ways of Fund Market Development in Uzbekistan*. Eurasian Scientific Herald, 2022.
9. Haydarov N.X. *Moliya: umumdavlat moliyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2009.
10. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.T. *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. – Toshkent: MChJ “RAM-S”, 2007.
11. Malikov T.S., Xaydarov N.X. *Moliya: umumdavlat moliyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2009.
12. Malikov T., Xaydarov N. *Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni*. – Toshkent, 2007.
13. Internet ma'lumotlari.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI